“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=310

2025-yil
2-son
iyul
ISSN 3093-8546



Raqamli muhitda mualliflik huquqi obyektlarining himoyasini ta’minlashda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqarish institutining tutgan o‘rni

Abdumumin Yuldashov,
Toshkent davlat yuridik universiteti Intellektual mulk huquqi kafedrasi mudiri o‘rinbosari
Dotsent, yuridik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: abdumuminyuldashev@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada mualliflik huquqi va turdosh huquqlar yo‘nalishida raqamli texnologiyalarning rivojlanish tendensiyalari, yuzaga kelayotgan xavf-xatarlar va rivojlanish istiqbollari hamda bu yo‘nalishda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning tutgan o‘rni haqida so‘z boradi. Xususan, maqolada raqamli texnologiyalari rivojlanishi bilan mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni boshqarish, himoya qilish usul hamda mexanizmlari tez o‘zgarayotganligi hamda bu jarayonda mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqarish instituti qaysi jihatlari bilan yetakchi o‘rinni egallashi bayon etilgan.

Калит сўзлар. Mualliflik huquqi, turdosh huquqlar, raqamli muhit, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqarish, zamonaviy texnologiyalari, texnik choralar, sud amaliyoti.

Аннотация. В данной статье рассматриваются тенденции развития цифровых технологий в сфере авторского права и смежных прав, возникающие риски и перспективы развития, а также роль организаций коллективного управления в этой сфере. В частности, в статье подчеркивается, что методы и механизмы управления и защиты авторских и смежных прав стремительно меняются с развитием цифровых технологий, и объясняется, каким образом институт коллективного управления имущественными правами занимает лидирующие позиции в этом процессе.

Ключевые слова. авторское право, смежные права, цифровая среда, коллективное управление имущественными правами, современные технологии, технические меры, судебная практика.

Annotation. This article discusses the trends in the development of digital technologies in the field of copyright and related rights, the emerging risks and development prospects, and the role of collective management organizations in this area. In particular, the article highlights that the methods

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

and mechanisms for managing and protecting copyright and related rights are rapidly changing with the development of digital technologies, and explains how the institution of collective management of property rights holds a leading position in this process.

Keywords. copyright, related rights, digital environment, collective management of property rights, modern technologies, technical measures, judicial practice.

Bugungi kunda davlatlar iqtisodiy rivojlanishining muhim omili sifatida yangi texnologiyalar yaratilishi hamda ularni xalqaro miqyosda tijoratlashuvi va almashinuvi alohida ahamiyat kasb etadi. Oʻz navbatida, mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalarni, bunda innovatsiya va yangi texnologiyalarni jalb etish hamda innovatsion iqtisodiyotga oʻtish bevosita texnologiyalar transferi uchun qulay muhitni shakllantirish omillariga bevosita bogʻliq boʻlib, bu jarayonlarning barqarorligini ta'minlash davlatlardan xalqaro texnologiyalar transferini tartibga solishning huquqiy normalari va mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Bunday davlatlar innovatsiya va texnologiyalar transferi sohasida yuqori koʻrsatkichlar namoyon etib, bu milliy iqtisodiyotga yangi texnologiyalarni jalb etish hamda ularning samarali huquqiy tartibga solinishini ijobiy xorijiy tajribadan kelib chiqqan holda takomillashtirish zaruratini koʻrsatadi.

Jahonda davlatlar oʻrtasida texnologiyalar transferi natijasida olingan daromadlar oxirgi uch yilda 200 mlrd. AQSH dollaridan oshgan. Xalqaro miqyosda texnologiyalar transferini kompleks huquqiy tartibga solish, jumladan intellektual mulk obyektlariga boʻlgan huquqlarni ta'minlash, innovatsiya faoliyatini tartibga solish, bu sohadagi qonunchilik va shartnomaviy-huquqiy bazani takomillashtirish, davlat boshqaruvini tashkil etish va davlat siyosatini yuritish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda innovatsion rivojlanish, texnologik yangilanish va texnologiyalar transferi mexanizmlarini yaratish, uni ta'minlash va tartibga solish sohasida tizimli ishlar amalga oshirilayotganini alohida qayd etish lozim. Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, Global innovatsion indeksda qayd etilgan indikatorlar boʻyicha Oʻzbekiston pozitsiyasini yaxshilash, innovatsion loyihalarni amalga oshirish uchun barcha yoʻnalishlarda keng imkoniyatlarni yaratish, tadqiqotlarni va innovatsion tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlashning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish mamlakat rivojlanishining asosiy maqsadlaridan biri boʻlib, ushbu sohadagi qonun hujjatlari va huquqni qoʻllash amaliyotini yanada takomillashtirish dolzarb masalalardan biri boʻlib qolmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustdagi Fuqarolik kodeksi, 2020-yil 24-iyuldagi OʻRQ-630-son “Innovatsion faoliyat toʻgʻrisida”gi Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining

2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi va 2018-yil 24-noyabrdagi PF-5583-son “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohasidagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 7-maydagi PQ-3698-son “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori va boshqa bir qator normativ-huquqiy hujjatlar ayni mana shu dolzarb masalani to‘laqonli hal etishga qaratilgan.

Oxirgi o‘n yilliklarda intellektual mulkning xalqaro bozori shakllanib, bunda intellektual mulk obyektlaridan foydalanishga bo‘lgan huquqlar xalqaro miqyosda o‘tkazilishi kengayib bormoqda. Huquqlarni o‘tkazish jarayoni xizmatlar ko‘rsatish sohasiga taalluqli bo‘lib, shuning uchun intellektual mulk bozori faoliyat turlari bo‘yicha turlicha bo‘lgan jahon xizmatlar bozori tarkibiga kiradi va uning asosiy tamoyillariga mos rivojlanib boradi. An'anaviy mahsulotlar bozoriga taqqoslanganda intellektual mulk jahon bozori sotuvchilar va xaridorlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning murakkab tizimini ifodalaydi. Ammo bu bozorda biz mulkiy mahsulotlar bilan emas, balki ilmiy-texnik yutuqlardan foydalanishga bo‘lgan huquqlarning yon berilishi bilan ish ko‘ramiz.

Texnologiyalar transferining eng muhim elementi bo‘lib texnologiyalardan, jumladan intellektual mulk obyektlaridan foydalanish huquqlarining muhofazasi hisoblanadi. Sababi yangi texnologiya uning texnik noyobligi va bozorda talabga egaligi sharti bilan, undan foydalanishga bo‘lgan alohida huquqlar tasdiqlangan bo‘lsa hamda texnologiya nou-xaudan iborat bo‘lsa tijorat qiymatiga ega bo‘ladi va huquqiy muhofaza obyekti sifatida qaraladi.

Ta'kidlash joizki, qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalarga muvofiq intellektual mulk obyektlariga (1) adabiy, badiiy va ilmiy ishlar; (2) ijro faoliyati, ovoz yozish, radioeshittirish va teleko‘rsatuvlar (3) inson faoliyatining hamma sohalaridagi ixtirolar (4) ilmiy kashfiyotlar (5) sanoat namunalari, tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari, firma nomlanishlari; (6) nosog‘lom raqobatdan himoya kabilar kirishi tan olinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining IV-bo‘limi intellektual mulkka bag‘ishlangan bo‘lib, 1031-moddada intellektual mulk obyektlari ko‘rsatilgan va ularning tarkibiga fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar, ishlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalar kirishi ko‘rsatilib, unda firma nomlari, tovar belgilari va tovarlar chiqarilgan joy nomlari ko‘rsatilgan.

Intellektual mulk huquqi nuqtayi nazaridan texnologiya transferi (o‘tkazilishi) davomida yuzaga keladigan asosiy huquqiy munosabatlar quyidagilarda o‘z aksini topadi:

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

birinchidan, oʻtkazilayotgan texnologiya tarkibiga kiruvchi huquq obyektlari obyektiv aniqlashtirilishi va ularning mavjudligi isbotlana oladigan boʻlishi lozim. Intellektual faoliyat natijalarining yigʻindisi sifatida yagona texnologiyani obyektivlashtirish shakllari amaldagi qonunchilik tomonidan toʻgʻridan-toʻgʻri belgilanmagan;

ikkinchidan, oʻtkazilayotgan texnologiya tarkibiga amaldagi qonunchilik tomonidan muhofaza qilinuvchi intellektual faoliyat natijalari yoki individuallashtirish vositalari toifasiga taalluqli obyektlar kirishi lozim. Yagona texnologiyaning mazkur majburiy elementlaridan tashqari uning tarkibiga ixtiyoriy elementlar sifatida intellektual faoliyatning huquqiy muhofaza qilinishi shart boʻlmagan natijalari, shu jumladan texnik maʼlumotlar va boshqa maʼlumotlar kirishi mumkin. Aralash shartnomalar doirasida intellektual mulk obyektlariga boʻlgan alohida huquqlarni oʻtkazishdan tashqari, uskunalarga boʻlgan mulkiy huquqlar, maʼlumot tashuvchilar va boshqa mulk ham oʻtkazilishi mumkin, shuningdek maʼlum bogʻliqlikdagi ishlarni bajarish va xizmatlarni koʻrsatish ham nazarda tutilishi mumkin;

uchinchidan, oʻtkazilayotgan obyektlar aylanma fuqarolik muomalasiga kiritilgan boʻlishi, fuqarolik muomalasi obyekti boʻla olmaydigan obyektlar transfer (oʻtkazish) predmeti boʻlishi mumkin emas;

toʻrtinchidan, oʻtkazilayotgan texnologiya muayyan amaliy faoliyatning texnologik asosi boʻlib, real xizmat qilish xususiyatiga ega boʻlishi lozim. Shu bilan bir qatorda, fuqarolik muomalasidan chiqarilgan yoki cheklangan ayrim obyektlar ham texnologiya transferi sifatida qaralishi mumkin. Masalan, harbiy ahamiyatdagi texnologiyalar transferi bunga misol qilib keltirilishi mumkin.

Fuqarolik huquqlarini amalga oshirishda ularning himoyalanganlik holati, yaʼni qonun hujjatlarida ushbu huquqlarni toʻsqinliksiz amalga oshirilishini taʼminlovchi hamda ushbu huquqlarning cheklanishini istisno etuvchi qoidalarning belgilanish darajasi muhim oʻrin tutadi. Aynan koʻrsatilgan jihatlar intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni amalga oshirishda ham ahamiyatlidir.

Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1040-moddasida intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilish usullari, yaʼni bu huquqlarning hamma tomonidan eʼtirof etilishi, rioya qilinishi, bajarilishi, qoʻriqlanishi, ular buzilgan taqdirda tiklash, buzilish oqibatlarining bartaraf etilishini taʼminlovchi yuridik vositalar, choralar va yoʻllar oʻz aksini topgan. Bunday usullar doirasi, turlari, ularni amalga oshirish tartibi qonunlarda belgilab qoʻyiladi.

Intellektual mulk obyektlarini himoya qilish deganda, bu obyektlarga nisbatan subyektiv huquqlar sohibining huquqlarini qonuniy jihatdan qoʻriqlashning vujudga kelish asoslari tushuniladi. Binobarin, intellektual mulk obyektlari oʻz-oʻzidan huquqiy muhofaza ostiga olinmaydi, balki bu obyektlarga nisbatan subyektiv huquqlarga ega boʻlgan shaxslar qonuniy manfaatlari

huquqiy jihatdan muhofaza qilinadi.

Hozirgi vaqtda xalqaro-huquqiy darajada xalqaro texnologiyalar transferi, xalqaro ommaviy huquqning turli (ekologik, iqtisodiy) sohalariga taaluqli boʻlgan universal, mintaqaviy va ikki tomonlama shartnomalar qoidalarida mavjud boʻlgan normalar bilan tartibga solinadi. Koʻpgina shartnomalarda muayn e'tibor intellektual faoliyat natijasi hisoblangan oʻtkazilayotgan texnologiyalarga boʻlgan intellektual mulk huquqlarining himoyasiga qaratiladi.

Texnologiyalar va intellektual mulk transferini huquqiy tartibga solishni ta'minlovchi xalqaro hujjatlar sifatida Jahon intellektual mulk tashkiloti (JIMT) ni ta'sis qiluvchi Konvensiya, 1994-yilgi JSTni tashkil qilish toʻgʻrisidagi bitimga ilova hisoblanadigan Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari boʻyicha bitim (TRIPS – Agreement on trade-related aspects of intellectual property rights), 1883-yil 20-martdagi Sanoat mulkini muhofaza qilish boʻyicha Parij konvensiyasi (1967-yil 14-iyulda Stokgolmda qayta koʻrilgan), 1970-yil 19-iyundagi Patent kooperatsiyasi toʻgʻrisida shartnoma (2001-yil 3-oktyabrda oʻzgartirilgan), 1994-yil 9-sentyabrdagi Yevrosiyo patent konvensiyasi, 1989-yil 28-iyundagi Belgilarni xalqaro roʻyxatdan oʻtkazish toʻgʻrisidagi Madrid bitimiga doir Bayonnoma, 1994-yil 27-oktyabrdagi Tovar belgilariga doir qonunlar toʻgʻrisidagi shartnoma, 2000-yil 1-iyundagi Patent huquqi toʻgʻrisida shartnoma, 1968-yil 8-oktyabrdagi Sanoat namunalarini xalqaro tasniflashni ta'sis etish toʻgʻrisida Lokarn bitimi, 1886-yil 9-sentyabrdagi Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish boʻyicha Bern konvensiyasi va h.k. hisoblanadi.

Mualliflik va turdosh huquqlar sohasidagi xalqaro konvensiyalar mamlakatlar oʻrtasidagi teng huquqli va adolatli munosabatlar uchun asos boʻlib hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi barcha yuqorida sanab oʻtilgan xalqaro konvensiyalar va bitimlar ishtirokchisi hisoblanadi.

Bir vaqtning oʻzida texnologiyalar xalqaro transferiga intellektual mulkka boʻlgan huquqlarning himoyasi sohasidagi xalqaro huquqqa taalluqli qoidalar yuqori ta'sir koʻrsatadi. Bunda Intellektual mulk huquqining savdo aspektlari boʻyicha bitim (TRIPS) eng koʻp ta'sir koʻrsatuvchi hujjat hisoblanadi. U JST ga a'zo davlatlarda intellektual mulk huquqlarini himoya qilishning eng kam kelishilgan standartlarini oʻz ichiga oladi.

Intellektual mulk obyektlari ular transfer etilishidan avval vujudga keladi, shu oʻrinda belgilangan tartibda ularga nisabatan huquqlar ham vujudga keladi, shundan soʻng ular transfer qilinadi. Shu sababli, intellektual mulk himoyasi sohasidagi islohotlar texnologiyalar oʻtkazilishining yanada rivojlanishiga va pirovardida eksport imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Intellektual mulkka boʻlgan huquqlar nafaqat texnologiyalar oʻtkazilishini huquqiy tartibga solishning ajralmas jihati, balki umuman olganda texnologik rivojlanishning, mavjud va yangi texnologiyalarning yuzaga keltirilishi, moslashtirilishi, joriy qilinishi va qoʻllanilishining muhim jihati boʻlib hisoblanadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Texnologiyalar transferi favqulodda keng g‘oyani ifodalab, u faqatgina intellektual mulk jihatlariga bog‘lanib qolmaydi. Texnologiyalar transferi – tadqiqotlarning jo‘shqin sohasi bo‘lib, intellektual mulk huquqlarini boshqarish, bozorni o‘rganish, jamoat (davlat) va xususiy laboratoriyalar roli, universitetlar roli, tavakkalchilikni boshqarish kabi an'anaviy mavzularni o‘z ichiga oladi. Biroq intellektual mulk huquqlariga rioya etish va himoya qilish masalalari eng munozarali hisoblanadi, sababi, xususan, litsenziya shartnomalari eng muhim yo‘llardan biri hisoblanib, ular orqali texnologiyalar o‘tkazilishi ro‘y beradi. Savdo va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kabi boshqa rasmiy yo‘llar orqali texnologiyalar o‘tkazilishida ham intellektual mulk huquqlari masalasi ko‘tariladi.

Xalqaro hamkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi intellektual mulkni yaratishni va undan foydalanishni har taraflama huquqiy tartibga solish bilangina erishish mumkin bo‘ladi. Bular esa yuqori axborot texnologiyalar, biotexnologiyalar, robototexnika, farmatsevtika, tibbiyot, sun'iy intellekt va boshqalarga taalluqli.

Mazkur sohada xalqaro huquq normalarini belgilash va qat'iy rioya etish jahon maydonida hamkorlikning majburiy sharti bo‘lib hisoblanadi. Intellektual mulk huquqlarining rejimlari texnologiyalarning yuzaga keltirilishi, o‘tkazilishi va joriy qilinishiga ta'sir o‘tkazuvchi siyosiy vositalar bo‘lgan va xalqaro norma ijodkorligining e'tibori intellektual mulk huquqlarining himoyasiga ko‘proq qaratilgan.

Rivojlangan mamlakatlarning intellektual mulk to‘g‘risidagi qonunchiligi rivojlanishi va qo‘llanilish amaliyotining tamoyillari orasida barcha yo‘nalishlar uchun quyidagi umumiylarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) huquqiy muhofaza rejimini kuchaytirish, shu jumladan yangi qo‘llanilish sohalariga va yangi obyektlarga patent muhofazasini joriy qilish, alohida huquqlarni buzganlik uchun jazolarning kuchaytirilishi, patent muhofazasi olish uchun rasmiy tartiblarni soddalashtirish;

2) raqamli texnologiyalar va Internet ommalashuvi bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishiga mos javobni izlash, shu jumladan, mualliflik huquqi sohasidagi mutlaqo yangi yondashuvlarning paydo bo‘lishi;

3) byudjet va jamoat fondlari hisobidan tadqiqotlarni amalga oshirishda olingan natijalardan foydalanish sohasidagi munosabatlarni erkinlashtirish (liberallashtirish)”.

Eng rivojlangan mamlakatlarning davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan ilmiy-texnik faoliyat natijalariga bo‘lgan davlat huquqlarini huquqiy ta'minlash va amalga oshirish sohasidagi siyosatining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ko‘p rivojlangan mamlakatlar davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ilmiy tadqiqotlar natijalarini tezda o‘zlashtirish, joriy etish va tijoratlashtirish orqali milliy sanoatning raqobatbardoshligini ko‘tarishga yo‘naltiradi, shuningdek bunday davlatlarda yangi texnologiyani yaratgan shaxs

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

yoki tashkilotga obyektga bo‘lgan huquqlar taqdim qilinmoqda.

Bundan tashqari, ayrim mamlakatlarda maxsus tashkilot va agentliklar shakllantirilgan bo‘lib, ular yangi texnologiyaga bo‘lgan davlatning huquqlarini amalga oshirish bilan shug‘ullaniladi. Masalan, Buyuk Britaniyada texnologik guruh, Yaponiyada esa uni JITA kabi tashkilotlar mavjud.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash mumkinki, intellektual mulk huquqlari sohasida global siyosatning asosiy tamoyili butun dunyoda intellektual mulk huquqlarining himoya darajasini birxillashtirish bo‘lib hisoblanadi.

Xulosa qilish mumkinki, texnologiyalarning o‘tkazilishi, joriy qilinishi va qo‘llanilishi orqali dunyo rivojlanishi manfaatlari intellektual mulk huquqlari himoyasi xalqaro tizimining moslashuvchanligi yo‘nalishida tadrijiy rivojlanishiga ta'sir ko‘rsatishi lozim. Bu orqali esa texnologiyalar xalqaro transferi tizimning tadrijiy rivojlanishi xalqaro transferi tizimining ijobiy rivojlanish istiqbollarini yaratadi.

Xalqaro hamkorlikning, jumladan manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishiga mamlakatlar o‘rtasida texnologiyalar transferi jarayonining samarali amalga oshirilishi va har taraflama huquqiy tartibga solinishi bilan erishish mumkin.

Texnologiyalar transferi tushunchasi yagona huquqiy ta'rifga ega bo‘lmay, ushbu tushunchaga mavjud yondashuvlar o‘rganilib, umumlashtirgan holda, bizningcha, texnologiyalar o‘tkazilishi yuridik bitim bilan mustahkamlangan jarayonni texnologiyalar transferi deb hisoblash mumkin. Ya'ni, texnologiyalar transferi – bu bilimlar, texnologiyalar, axborot va texnologik tajriba (ilmiy, ilmiy-texnik va boshqa bilimlar, shu jumladan ilmiy, ilmiy-texnik faoliyat natijalari va bunday natijalarga bo‘lgan huquqlar, ham mamlakatda, ham xorijda ishlab chiqilgan texnologiyalar)ning amalda qo‘llanilish sohasiga o‘tkazilishiga qaratilgan tadbirlar majmuidan iborat jarayon bo‘lib, bunda texnologiyani yaratgan va undan tijoratlashtirish maqsadida foydalanadigan shaxslar o‘rtasida shartnoma tuzish orqali innovatsiyalarni yaratish va ulardan foydalanishni nazarda tutuvchi jarayon.

Bundan tashqari, xalqaro transferda texnologiyaning tushunchasiga bo‘lgan turli yondashuvlarni hisobga olgan holda, u axborot ko‘rinishida intellektual mahsulot (bilimlar ilmiy-texnik ma'lumot, patent, nou-xau va h.k.) sifatida va mahsulot, jarayon, uskuna, xizmat sifatida moddiylashtirilgan ko‘rinishda bo‘ladi. Bundan kelib chiqadiki, xalqaro amaliyotda, “texnologik” deya ataluvchi “majmua” (“paket”) transferi mavjud bo‘lib, uning tarkibiga egasi yuqori malakali mutaxassislar bo‘lgan ilg‘or tajriba va bilimlar, intellektual qiymat obyektlari, turli ilmiy sig‘imli mahsulot va xizmatlar kirishi mumkin.

Huquqiy nuqtayi nazardan texnologiyalar transferi fuqarolik, soliq, bojxona, moliya va ma'muriy huquq me'yorlarini o‘z ichiga oluvchi kompleks huquqiy institutdir.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Texnologiyalar transferini huquqiy tartibga solishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratilishi zarur: texnologiyalar transferi mexanizmlarini qonun hujjatlarida aniq tartibga solish, mualliflar va investorlar huquqlarini muhofaza va himoya qilish, texnologiyalarni o‘tkazish bo‘yicha shartnomalar tuzish va ro‘yxatdan o‘tkazish tartibi, imtiyozli siyosatni amalga oshirish, yuqori texnologiyalar yaratilishini moliyalashtirish tartibi, xorijga o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan texnologiyalar mezonlarining mavjudligi.

Xalqaro hamkorlikning muvaffaqiyatli rivojlanishi intellektual mulkni yaratishni va undan foydalanishni puxta huquqiy tartibga solish orqali amalga oshirilishi mumkin. Mazkur yo‘nalishda hamkorlikni kuchaytirish doirasida mavjud xalqaro shartnomalarga qo‘shilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda, intellektual mulk huquqlari sohasida global siyosatning asosiy tamoyili butun dunyoda intellektual mulk huquqlarining himoya darajasini birxillashtirish bo‘lib hisoblanadi.